

2016 yilning 19 sentabrdagi  
AJ “O’zmetkombinat”  
Kuzatuv kengashi qarori bilan  
“TASDIQLANGAN”  
Gerbli muhr

**AKSIYADOR (ISHTIROKCHI) HISOBLANGAN,  
KORXONALAR BOSHQARUV ORGANLARIDA  
“O’ZMETKOMBINAT” AJ VAKILLARINING JAMIYAT  
NOMIDAN OVOZ BERISH TARTIBI TO’G’RISIDA NIZOM**

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu nizom, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish haqidagi" qonuni, "Ma'suliyati cheklangan va qo'shimcha ma'suliyatli jamiyatlar haqidagi" qonuni, va 31.12.2015 yilgi aksiyadorlik jamiyati faoliyati samarasini oshirish va korporati boshqaruv tizimini yaxshilash Qo'mitasi majlisining 9- sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksiga binoan, AJ "O'zmetkombinat" (keying o'rinlarda – Jamiyat deb yuritiladi) aksiyador (ishtirokchi) hisoblangan korxonalarining boshqaruv organida vakillarining jamiyat nomidan ovoz berish tartibini aniqlaydi.
2. Ushbu nuzomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**Aksiyalar paketi (ulush)** – egalik huquqi asosida Jamiyatga tegishli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari aksiya (ulushi);

**Jamiyat vakili** – jamiyat tomonidan berilgan ishonchnoma asosida aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi Jamiyat manfaatlarini namoyish qiluvchi Jamiyat xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs, yoki Jamiyat taklifi bo'yicha kuzatuv kengashiga kiritilgan, oliy ma'lumotli, kamida 2 yil ish tajribasiga ega bo'lgan shaxs.

3. Xo'jalik jamiyati kuzatuv kengashi tarkibiga Jamiyatning ikki yoki undan ortiq vakili kiritilgan hollarda, ushbu nizomda ko'zda tutilgan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibi haqida oldindan kelishuv, Jamiyat qarori bilan belgilanadigan Jamiyat xodimi tomonidan amalga oshiriladi.
4. Jamiyat vakili, jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda, qonunchilikka binoan, mustaqil ravishda, bir vaqtning o'zida quyidagi mezonlar mavjud bo'lganida, qaror qabul qiladi:

Jamiyatning xo'jalik jamiyatidagi ulushi 25 foizdan kam;

Bir xo'jalik jamiyatidagi aksiyalar paketi (ulushlari), undan keyin kuzatuv kengashashi yig'ilishi yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan hisobot sanasida jamiyat sof aktivlarining kamida bir foizini tashkil etganida.

## II. JAMIYAT BILAN OLDINDAN KELISHIB OLINISHI KERAK BO'LGAN MASALALAR

5. Quyidagi masalalar oldindan kelishib olinishi kerak:
  - Xo'jalik jamiyati ustaviga o'zgarish va qo'shimchalar kiritish, yoki ustavning yangi tahririda tasdiqlash;
  - Xo'jalik jamiyati ustav kapitali miqdorini o'zgartirish;
  - Xo'jalik jamiyati faoliyatining asosiy faoliyat yo'nalisharini o'zgartirish;
  - Xo'jalik jamiyatining ijroiya organini tashkil qilish, uning rahbarini saylash (tayinlash) va vakolatlarini muddatidan oldin to'xtatish;
  - Kuzatuv kengashi va taftish qo'mitasi a'zolarini saylash;
  - Yirik bitimlar va afillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish;
  - Xo'jalik jamiyatini boshqa Xo'jalik jamiyatlarida ishtirok etishi;
  - Xo'jalik jamiyatining tashkiliy bo'linmasini tasdiqlash;
  - Xo'jalik jamiyatini qayta tashkil qilish yoki tugatish, tugatuvchi (tugatish qo'mitasini) tayinlash va oraliq hamda yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
  - Xo'jalik jamiyati foydasini taqsimlash.
6. Jamiyat vakili ushbu Nizomning 4 bandida ko'rsatilmagan masalalar bo'yicha mustaqil ravishda qonunchilikka binoan, hamda Jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda qaror qabul qiladi.

### **III. JAMIYAT BILAN MASALALARNI MUVOFIQLASHTIRISH TARTIBI**

7. Ushbu Nizomning 4 bandida ko'zda tutilgan masalalar bo'yicha yo'riqnomalar olish uchun, jamiyat vakili, kuzatuv kengashi yig'ilishi yoki aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi aniqlanganidan keyin, uch kun davomida Jamiyatga yozma xabar, shuningdek, kun tartibi masalalari bo'yicha zarur ma'lumot va ko'rsatilgan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibi bo'yicha o'z takliflarini yuboradi.
8. Kuzatuv kengashi, aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi kun tartibiga jamiyat sof foydasini yoki uning bir qismini texnik jihozlash, rekonstruksiya, asosiy ishlab chiqarish fondlarini yuritish yoki jamiyatning boshqa ishlab chiqarish zaruriyati yo'naltirish masalasini kiritilgan hollarda, jamiyat vakili, ushbu harajatlarni asoslanishi va ularni ishlatishda yakuniy natijalari (bisnes-reja yoki boshqa ma'lumotlar) haqida ma'lumotni jamiyatga taqdim qiladi.
9. Yozma xabar olinganidan keyin 5 kun davomida (lekin kuzatuv kengashi yig'ilishi, aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kechikmagan holda), Jamiyat uning vakiliga ushbu qoidalarda nazarda tutilgan masalalarga ovoz berish tartibi bo'yich yo'riqnomalar yuboradi.
10. Jamiyat vakiliga yuboriladigan yo'riqnomalar, Jamiyat rahbari yoki uning muovini tomonidan imzolanadi.
11. Kuzatuv kengashi yig'ilishi, aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi o'tkazilmagan hollarda, agar Jamiyat vakili tomonidan berilgan yo'riqnomalarni qayta ko'rib chiqishga olib keladigan, holat va dalillarni o'zgartirish haqida ma'lumot kiritilmasa, berilgan yo'riqnomalar, kuzatuv kengashi yig'ilishi, aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi ko'chirilgan sanasigacha o'z kuchida qoladi.
12. Ushbu Nizomda belgilangan muddatlarda, kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berish yo'riqnomalari olinmagan bo'lsa, Jamiyat vakili kuzatuv kengashi yig'ilishi, aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishida ishtirok etmasligi mumkin.
13. Kuzatuv kengashi yig'ilishi, aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi o'tkazilganidan keyin, 15 kun davomida, Jamiyat vakili kuzatuv kengashi yig'ilishi, aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi bayonnomasi nusxasini Jamiyatga (aksiyadorlar bilan korporativ aloqa boshqarmasiga) yuboradi.
14. Kuzatuv kengashi yig'ilishi, aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi tomonidan olingan yo'riqnomaga zid keladigan qaror qabul qilganida, jamiyat vakili uch ish kuni ichida bu haqida jamiyatni ogohlantirishi kerak.
15. Ko'rsatilgan xabarni olganidan keyin bir hafta ichida, Jamiyat o'z vakiliga uning keyingi harakatlari bo'yicha yo'riqnoma yuboradi.
16. Jamiyat vakili yo'riqnomada ko'rsatilgan qarordan boshqa qaror uchun ovoz bergan taqdirda, jamiyat vakili qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.
17. Kuzatuv kengashi tarkibiga Jamiyatning boshqa vakillari ham kirganida, majburiy ravishda muvofiqlashtirishi kerak bo'lgan, kun tartibi masalalari bo'yicha ovoz berishda, ular Jamiyat tomonidan berilgan yo'riqnomalarga rioya qilishlari kerak.
18. Jamiyat, Jamiyat vakillaridan olingan ma'lumotlar, shuningdek, ovoz berish tartibi boyicha yuborilgan yo'riqnomalarni alohida hisobini yuritadi.

### **IV. YAKUNIY QOIDALAR**

19. Ushbu nizom bajarilishi yuzasidan nazoratni ichki audit xizmati amalga oshiriladi.
20. Ushbu nizom nazorat qilish natijalari haqida ma'lumot, ichki audit xizmati hisobotlariga kiritiladi.
21. Ushbu nizom talablarini buzganlikda aybdor shaxslar, qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda javobgar hisoblanadi.